


**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**60812000 – Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish bakalavriat ta’lim  
yo‘nalishining malaka talablari**



**Toshkent -2023**

**ISHLAB CHIQLIGAN:**

- Toshkent davlat agrar universiteti;

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» avgust -dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		Bet
1.	<i>60812000– Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi .....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	<i>60812000– Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish</i> ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi .....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	<i>60812000– Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.....	4
1.2.1.	<i>60812000– Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari .....	4
1.2.2.	<i>60812000– Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	<i>60812000– Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60812000– Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60812000– Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar .....	6
2.2.	<i>Kasbiy kompetensiyalar</i> .....	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	7
2.3.2	<i>60812000- Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish</i> ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	7
2.3.3	<i>60812000- Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish</i> bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:.....	7
	Bibliografik ma’lumotlar.....	9
	Kelishuv varag‘i.....	10

## **1. 60812000– Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi**

**60812000 – Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi.**

**1.1.1. 60812000 – Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish** ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi **60812000 – Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 60812000 – Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

**1.2.1. 60812000 – Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

**60812000 – Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish** bakalavriyat talim yo‘nalishi – “Qishloq xo‘jaligi” ta’lim sohasiga oid yo‘nalishi bo‘lib, yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish maqsadida issiqxonalarda sabzavot maxsulotlarini mavsumdan tashqari davrlarda ishlab chiqarish; issiqxona xo‘jaliklarida qishloq xo‘jalik maxsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish; issiqxona xo‘jaligi mahsulotlarini sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida texnik vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

**1.2.2. 60812000 Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- yer, suv, energetik va moddiy – texnika resurslari, issiqxona ekinlari, qo‘shimcha kimyoviy va biologik vositalar; texnik asbob uskunalari;

-qishloq xo‘jalik tizimidagi ishlab chiqarish jarayonlari;

- issiqxonalarda sabzavot maxsulotlarini yetishtirish jarayonlari;

- ilmiy tadqiqot jarayonlari;

- issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritishning boshqaruv tizimlari.

**60812000 Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish** yo‘nalish bo‘yicha bakalvriat



bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning yo'nalishlari bundan mustasno.

**1.2.3. 60812000- Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- tashkiliy-boshqaruv.
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot – tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- loyiha-texnologik faoliyat;
- texnologik-ishlab chiqarish.

**1.2.4. 60812000- Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

60812000- Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali boshqarish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- issiqxona xo'jaligini tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;
- xizmat ko'rsatish sohasida meyoriy- huquqiy hujjatlardan foydalana olish;
- issiqxonalarda sabzavot mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha servis xizmati ko'rsatish;
- issiqxona xo'jaliklari maydonini kengaytirish va mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish maksadida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

- texnologik jarayonlarni bajarish sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;
- ilg'or texnologik jarayonlarni qo'llash;
- ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiyanomalar berish;
- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xafsizligi qoidalarini ta'minlash.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- muammolarni hal etishga va qaror qabul qilishga tayyorgarlik, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ish samaradorligi va sifatiga javobgarlik;
- respublika va xorijda chop etilgan issiqxona sabzavotchiligiga oid ilmiy -texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

- ilmiy – tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etishda qatnashish.

**Loyiha - texnologik va texnologik ishlab chiqarish faoliyatida:**

- issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish bo'yicha loyihalar tuzish mehnat jamoasi shakllantirish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;
- issiqxona xo'jaliklarini loyihalash uchun zaruriy tayyorgarlik;
- faoliyat natijalarini tahlil va sintez qilish, tashkil etish va rejalashtirish, baholash, fundamental, umumkasbiy va amaliy bilimlardan foydalanish qobiliyati va ularga tayyorgarlik;
- mustaqil ishlash qobiliyati, ish jarayonlarini identifikatsiyalash va mahoratdan foydalanish;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining halqaro va kasbiy standartlarni, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

**2. 60812000- Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga talablar**

**2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

**2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish sohasida mehnatni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring nazorat qilish;
- sohaga oid muammolarni topish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar xar xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholash;
- issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish bo'yicha zamonaviy qurilmalardan foydalanish;
- issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritishda texnologik jarayonlarni boshqarish
- zamonaviy bozor talablarini, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan xo'jalik strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- innovatsion loyixalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- issiqxonalarda sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishni samarali va resurs tejamkor faoliyatini tashkil etish.



### 2.3. Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

#### 2.3.1 Kvalifikatsiya: mevachi, sabzavotchi, issiqxona-agronomi.

#### 2.3.2. 60812000- Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5460	182
Tanlov fanlar	960	32
Malakaviy amaliyotlar	660	22
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

#### 2.3.3. 60812000- Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>5460</b>	<b>182</b>	
1.01	O'EYTB1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	DINB1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	FALB1504	Falsafa	120	4	5
1.04	XJTNB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O'ZRTB1204	O'zbek (rus) tili: O'zbek tilini sohada qo'llash	120	4	2
1.06	JMSB1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.07	OMTB1104	Oliy matematika	120	4	1
1.08	ANFKBKB1204	Analitik, fizkolooid va biokimyo	120	4	2
1.09	BO'FZB1108	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi	240	8	1,2
1.10	QXMB1106	Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish	180	6	1
1.11	QXAKTB1104	Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar	120	4	1
1.12	SPEBB1204	Sabzavot va poliz ekinlari biologiyasi	120	4	2
1.13	BIOGB1204	Biologiya	120	4	2
1.14	TPAKB1308	Tuproqshunoslik va agrokimyo	240	8	3,4
1.15	DHMELB1308	Dehqonchilik va melioratsiya	240	8	3,4
1.16	ISXMB1310	Issiqxona mevachiligi	300	10	3,4
1.17	O'SHB1306	O'simlikshunoslik	180	6	3

1.18	AGROBTB1406	Agrobiotexnologiya	180	6	4
1.19	SBZPZB1512	Sabzavotchilik va polizchilik	360	12	5,6
1.20	ISEHQB1508	Issiqxona ekinlarini himoya qilish	240	8	5,6
1.21	HERTTB1510	Himoyalangan yer inshootlarining turlari va tuzilishi	300	10	5,6
1.22	QXEGSUB1510	Qishloq xo'jalik ekinlari genetikasi, seleksiyasi va urug'chiligi	300	10	5,6
1.23	ISKB1710	Issiqxona ko'chatchiligi	300	10	7,8
1.24	HESB1712	Himoyalangan yer sabzavotchiligi	360	12	7,8
1.25	ISXINVTB1708	Issiqxona xo'jaligida innovatsion texnologiyalar	240	8	7,8
1.26	QXMSSB1706	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini standartlashtirish va sertifikatlash	180	6	7
1.27	QXMSQITB1806	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi	180	6	8
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>960</b>	<b>32</b>	<b>3,4,5,6,8</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	960	32	
		<b>Jami</b>	<b>6420</b>	<b>214</b>	
		Malakaviy amaliyotlar	660	22	2,4,6,7
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	8
		<b>Jami</b>	<b>780</b>	<b>26</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	



## Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 635+634

Guruh T 55

OXS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturi, o'quv jarayoni, loyiha-texnologik, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, sifat nazorati, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari, gidroponikali issiqxona, makro elementlar, mikro elementlar, plyonka, tumanlashtirish, mikroiklim, gofra, orkplast, generator, suv tankerlari, osmosli suvni tozalovchi qurilma, issiqlik pardalari, yorug'lik pardalari, tomchilatkichli quvurlar, dozator, shlang naychalar, hashorat tutuvchi to'rlar, fankoil isitgichlari, tayanch trubalar, karali mashinalar, hosil iplari, hosilni tashuvchi teleskalar, suvni nitratini o'lchovchi mikro datchiklar (Ph), ozuqali muhitni o'lchovchi ES datchiklar.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQUILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor  S.Ya. Islamov

2023 yil « 10 » 07



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  Sh. Yakubov

2023 yil « 21 » 08  
M.O'.



Termiz agrotexnologiyalar va  
innovatsion rivojlanish instituti

Rektori v.b.  A. Jo'rayev

2023 yil « 17 » 07  
M.O'.



Andijon qishloq xo'jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti

Rektor  K. Komilov

2023 yil « 18 » 07  
M.O'.




O'simliklar genetik resurslari  
ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor  S. Aliqulov

2023 yil « 19 » 07  
M.O'.



Sabzavot, poliz ekinlari va  
kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti

Direktori  R. Nizomov

2023 yil « 20 » 07  
M.O'.



Akademik M. Mirzayev nomidagi  
Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik  
ilmiy-tadqiqot instituti

Direktori  U. Abduganiyev

2023 yil « 20 » 07  
M.O'.



**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**  
**60812000 – Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari**  
**va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar**  
**iste‘molchilari o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent vil.

“10” 07. 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori S.Y.Islamov, Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti rektori v.b A. Jo‘rayev, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori K.Komilov, O‘simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti direktor S.Aliqulov, Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti direktor R.Nizomov, Akademik M. Mirzayev nomidagi Bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori U.Abduganiyev birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60812000 – Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish ta‘lim yo‘nalishi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarning ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Toshkent davlat agrar universiteti**  
**birinchi prorektori**

**S.Ya. Islamov**

**Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion**  
**rivojlanish instituti rektori v.b.**

**A. Jo‘rayev**

**Andijon qishloq xo‘jaligi va**  
**agrotexnologiyalar instituti rektor**

**K.Komilov**

**O‘simliklar genetik resurslari**  
**ilmiy-tadqiqot instituti direktor**

**S.Aliqulov**

**Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik**  
**ilmiy-tadqiqot instituti direktori**

**R.Nizomov**

**Akademik M. Mirzayev nomidagi**  
**Bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik**  
**ilmiy-tadqiqot instituti direktori**

**U.Abduganiyev**